


2022- yilning yanvar-sentabr oylarida Farg'ona viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida Farg'ona viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rnlarda –YAHM) hajmi joriy narxlarda 39 665,8 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2021- yilning yanvar-sentabr oylari bilan taqqoslaganda 4,7 %ga o'sdi.

YAHM deflyator indeksi 2021- yilning yanvar-sentabr oylaridagi narxlarga nisbatan 112,1 %ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Farg'ona viloyatining qo'shgan hissasi 6,3%ga yetdi.




**2021-2022- yillarning yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari**

	<i>Mird. so'm</i>		<i>O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan %da</i>
	<i>2021- yil</i>	<i>2022- yil</i>	
I. YAHM, jami	33 806,6	39 665,8	104,7
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	32 676,9	38 413,0	104,6
mahsulotlarga sof soliqlar	1 129,7	1 252,8	107,4
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	32 676,9	38 413,0	104,6
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	11 682,6	13 779,8	103,6
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	8 906,9	10 321,8	107,2
sanoat	6 690,1	7 626,3	106,0
qurilish	2 216,8	2 695,5	110,8
xizmatlar	12 087,4	14 311,4	103,7
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	2 628,3	3 034,6	103,0
tashish va saqlash, axborot va aloqa	2 000,6	2 280,9	108,5
boshqa xizmat tarmoqlari	7 458,5	8 995,9	102,6

Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 10 105,2 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,7 %ga yuqoridir.

2021-2022- yillarning yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi va o'sish sur'atlari




Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiyligi YAHMning 96,8 %ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 3,2 %ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 35,9 %ni, sanoat tarmog'i 19,9 %ni, qurilish 7,0 %ni va xizmatlar sohasi 37,2 %ni tashkil qildi.


**2021-2022- yillarning yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan %da)**

	2021- yil	2022- yil
I. YAHM, jami	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	96,7	96,8
mahsulotlarga sof soliqlar	3,3	3,2
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0
<i>qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</i>	35,8	35,9
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	27,3	26,9
sanoat	20,5	19,9
qurilish	6,8	7,0
xizmatlar	36,9	37,2
<i>savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar</i>	8,0	7,9
<i>tashish va saqlash, axborot va aloqa</i>	6,1	5,9
boshqa xizmat tarmoqlari	22,8	23,4

**2021-2022- yillarning yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan %da)**



2021- yil




2022- yil

● **Yalpi qo'shilgan qiymat**

● **Mahsulotlarga soʻf soliqlar**


YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobjiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 103,6 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 35,9 %), sanoatda – 106,0 % (19,9 %), qurilishda – 110,8 % (7,0 %), xizmatlar sohasida – 103,7 %ni (37,2 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 103,0 % (7,9 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 108,5 % (5,9 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 102,6 % (23,4 %) dan iborat bo'ldi.

**2021-2022- yillarning yanvar-sentabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan %da)**




YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 1,3 f.p. (2021- yilning yanvar-sentabr oylarida – 1,2 f.p.), sanoat tarmog'i – 1,2 f.p. (2021- yilning yanvar-sentabr oylarida – 1,1 f.p.), qurilish tarmog'i – 0,7 f.p. (2021- yilning yanvar-sentabr oylarida – 1,2 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 1,3 f.p. (2021- yilning yanvar-sentabr oylarida – 4,0 f.p.) ijobjiy hissa qo'shdi. Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,2 f.p. (2021- yilning yanvar-sentabr oylarida – 0,3 f.p.)ga ko'paydi

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)



2022- yilning yanvar-sentabr oylarida YAHM deflyatori indeksi 2021- yilning yanvar-sentabr oylaridagi narxlarga nisbatan 112,1 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari xizmat ko'rsatish sohasida – 114,2 % va qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 113,8 % qayd etildi.

**2021-2022- yillarning yanvar-sentabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)**



2021-2022- yillarning yanvar-sentabr oylarida kichik biznesning YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan %da)

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi 69,2 %ni tashkil qildi (2021- yilning yanvar-sentabr oylarida – 70,9 %).

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o'tgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bog'liq.

